

Aksiyadorlik tijorat “Aloqabank” aksiyadorlari diqqatiga!
Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini
chaqirish to'g'risida
XABARNOMA
(masofadan)

Sizni **2026-yil 14-avgust kuni soat 10:00 da** “Evote.uz” elektron ovoz berish xizmati orqali masofadan turib bo'lib o'tadigan AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga taklif etamiz.

Umumiy yig'ilishda masofadan turib ishtirok etish va kun tartibiga kiritilgan masalalarga ovoz berish “Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi” AJning <http://evote.uz> elektron ovoz berish xizmati orqali ta'minlanadi. Aksiyadorlar platformadan foydalanish uchun elektron raqamli imzo kaliti (ERI) bilan identifikatsiyadan o'tishlari lozim (platformadan foydalanish bo'yicha Markaziy depozitariy telefon raqami: +99871 211-09-09).

Kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilgan:

1. AT “Aloqabank” aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.

2. AT “Aloqabank”ning 2026-yil ish faoliyati bo'yicha yarim yillik va yillik Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobotlarini auditdan o'tkazib xulosa tayyorlash xizmatini tanlash bo'yicha o'tkazilgan xarid natijalariga ko'ra g'olib deb topilgan auditorlik tashkilotini belgilash va u bilan shartnoma tuzish.

AT “Aloqabank” Kuzatuv kengashi yig'ilishining 2026-yil 23-iyuldagi qaroriga asosan: Aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabardor qilish uchun reyestrni shakllantirish sanasi: **2026-yil 23-iyul**. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: **2026-yil 10-avgust**.

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmatidan (<http://evote.uz>) foydalangan holda **2026-yil 14-avgust soat 09:00 dan 10:00 gacha** amalga oshiriladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga oid hujjatlar hamda kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tayyorlangan ma'lumotlar bilan <http://evote.uz> elektron sahifasi orqali tanishishingiz yoki info@aloqabank.uz elektron manzili orqali so'rov yuborishingiz mumkin. Ma'lumot uchun telefon: +998 71-232-83-67.